



KREDIT-MODUL TIZIMINING ASOSIY VAZIFALARI

R.Joldasbaeva- Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

Bazarbaev A, Kadirbergenov E, Muratbaev R-

Geografiya fakulteti 1 kurs talabalari

Tayanch so'zlar : kredit-modul tizimi, tyutor, kredit-soat, edvayzer, fasilitator, mentor

Ключевые слова: кредитно-модульная система, репетитор, кредит-час, консультант, фасилитатор, наставник

Key words: credit-module system, tutor, credit-hour, advisor, facilitator, mentor

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2020-yil 31-dekabrdagi „Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori asosida „Oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida“ NIZOM tasdiqlangan.Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AqSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan. 1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'lifining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot „kredit soati“ tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 – 1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lif texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi [1].

Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, keljakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisini bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lif texnologiyalarining takomillashishiga ham olib



keldi. Bolonya deklaratsiyasida ko‘zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan - mustaqil ta’limga urg‘u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

birinchisi,

talabalar va o‘qituvchilarining mobilligini, ya’ni bir oliy ta’lim muassasasidan boshqa OTMga to‘sqliarsiz, erkin ravishda o‘tishini (o‘qishni yoki ishni ko‘chirish)ni ta’minlaydi;

ikkinchisi, talabaning tanlagan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha barcha o‘quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama – kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig‘indisi talabaning tanlagan dasturi bo‘yicha nimani qancha o‘zlashtirganligini namoyon etadi [2].

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

- o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ningqiyimatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish;
- ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisiga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi

Kredit - modul tizimi – mustaqil ta’lim olishga qaratilgan va individuallik asosida bilimni ijodiy o‘zlashtirish, o‘quv jarayonini qat’iy belgilangan holda ta’lim yo’lini tanlash va kredit holida bilim hajmini belgilovchi tizimdir. Bu tizim hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida umumiyligi yo’lga qo‘yilgan, vaqt sinovlarida o‘zini yetarlicha oqlagan va bir biridan farq qiluvchi, lekin bir – birini o‘zaro to’ldiruvchi ikkita – modul va kredit o‘qitish texnologiyalarini birlashishidan hosil bo’lgan. Modul – alohida o‘quv fani (yoki uning qismi) bo’lib, o‘zida tegishli



bilim hamda kasbiy jihatlarga doir ma'lumotlarni qamrab oladi [3]. O'qitishning modul tizimi talabaning fan dasturini o'rganishi natijasida shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanadi. Masalan, talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari o'tkazilinadi. Modulli o'qitish – tartibli o'qitish demakdir. Bunda o'quv materiali bitta o'quv mashg'uloti hajmida, o'quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo'limi darajasida, ba'zan esa o'quv fanining yirik tarkibiy qismida, ya'ni, bloklar tarzida ham o'qitish mumkin, deydi Toshkent davlat yuridik universitetining o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i Ixtiyor Jo'rayev. – Modullar, birinchi navbatda, ta'lim mazmuniga daxldor tushunchalar, qoidalar, nazariyalar, qonunlar va ular orasidagi umumiyligi bog'lanishni ifodalovchi qonuniyatlarni tushuntirishga samarali xizmat qiladi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa, yo'naltirilgan obyekti tomon mustaqil ta'lim olishga qaratilinadi [4] Akademik kredit tizimi esa, talabaning oliy o'quv yurtida samarali bilim olishini aniqlab beradigan standartlashtirilgan baholash tizimidir. Kredit – talaba tomonidan tegishli o'quv ishlarini bajarishga ketadigan vaqt (soatlar) dan tashkil topadi. Har bir modul mustaqil kredit hisobiga ega. Oliy ta'lim muassasasi kredit tarkibi, har bir modul bo'yicha kreditlar soni, shuningdek, har bir kursni va umuman o'qish davrini tamomlash uchun talaba tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlarning umumiyligi sonini mustaqil belgilaydi. Akademik kredit tizimining o'ziga xos tomonlaridan yana biri, xalqaro umumta'lim standartlariga mos kelishi va ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish muammolari, jahon tendentsiyalarini hisobga olgan universal ta'lim dasturlarini mutanosibligidir. Talabalarda xorijiy davlatlar universitet ta'lim darajasiga erkin kirish imkoniyatlari vujudga keladi, bakalavr va magistratura bitiruvchilarini barcha davlatda ishga joylashish huquqlari paydo bo'ladi [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий таълимдаги устувор вазифаларга бағишлиланган видео селектор йиғилиши баёни. 2021 йил 16-июнь. (<https://president.uz/uz/lists/view/4424>)
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29-декабрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 2017 й.
5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатый тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 2017 й.

REZYUME: Kredit-modul sistemasıñ engiziwdiń jańa sharayatlarında professor - oqıtılıshılardıń roli sezilerli dárejede ózgeredi Pedagoglardıń kóp qırlı wazıypaları bir-birinen ádewir pariq etedi hám ózgeshe islew metodların talap etedi.

РЕЗЮМЕ: Роль профессоров-преподавателей существенно изменилась в условиях введения кредитно-модульной системы.

RESUME: The role of professors-educators has significantly changed in the context of the introduction of the credit-module system.